

TIJORAT BANKLARINING FUNKSIYALARI VA OPERATSIYALARI

To‘uchiyev Otabek Shamshiyevich

O‘zmilliybank AJ Toshkent viloyati bosh boshqarmasi
bosh buxgalteri

Annotation: Ushbu maqolada tijorat banklarining funksiyalari va operatsiyalari, ushbu banklarning rivojlanishi uchun amalga oshirilayotgan islohotlar xususidagi fikrlar berilgan.

Kalit so’zlar: bank, tijorat bank, bank tizimi, «marja», bank operatsiyalari.

Аннотация: в данной статье даны мнения относительно функций и операций коммерческих банков, реформ, проводимых для развития этих банков.

Ключевые слова: банк, коммерческий банк, банковская система, “marja”, банковские операции.

Abstract: this article provides ideas about the functions and operations of commercial banks, the reforms implemented for the development of these banks.

Keywords: bank, commercial bank, banking system, «marja», banking operations.

KIRISH

Tarixiy taraqqiyot davomida banklar mablag’larni yig’ish, saqlab berish, kredit-hisob va boshqa turli xil vositachilik operatsiyalarini bajarib kelganliklari sabab, banklar kredit muassasa bo’lib, foyda olish maqsadida bank barcha risklarni o’ziga qabul qilgan holda operatsiyalarini amalga oshiradi.

Ba’zi adabiyotlarda «bank-bu korxona», deb ham izoh beriladi. Ma’lumki, bank yaxlit olingan korxona sifatida ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirmaydi. Tijorat banklarining faoliyatini korxona faoliyatiga shu jihatdan o’xshatish mumkinki, tijorat banklari ham korxonalar singari o’z faoliyatini o’z daromadini ko’paytirishga qaratadi, lekin korxonalar faoliyatidan farqli ravishda banklar shu asosida birinchidan, o’z ta’sischilari-aksiyadorlarining manfaatlarini, ikkinchidan, o’z mijozlarining manfaatlarini himoya qilishni ta’minlaydi.

Respublikamizda so‘nggi yillarda bank tizimini rivojlantirish, ayniqsa, sohaga zamonaviy IT-texnologiyalarni keng joriy etish, raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish qaratilgan konstruktiv choralar ko’rilmoxda. Bu boradagi jarayonlar joriy yildan boshlab yanada tezlashtirildi. Bu bejiz emas. Zero, davlatimiz rahbari Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta’kidlab o’tganidek, "Afsuski, bank tizimi raqamli texnologiyalarni qo’llash, yangi bank mahsulotlarini joriy etish va dasturiy ta’mnotlar bo‘yicha zamon talablaridan 10-15 yil orqada qolmoqda. 2020-yildan boshlab har bir bankda keng ko’lamli

transformatsiya dasturi amalga oshiriladi. Bu borada banklarimizning kapital, resurs bazasi va daromadlarini oshirish alohida e'tiborimiz markazida bo'ladi".

Xususan, 2024-yil O'zbekistonda "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilinganligini sababli, bank tizimida tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratiladi.

Zero, davlatimiz rahbari aytib o'tganidek, "Bank sohasidagi islohotlarning asosiy maqsadi – tijorat banklarini mijoz uchun ishlashga o'rgatishdan iborat".

Bu yo'lda banklarda axborot texnologiyalarini keng tatbiq etish orqali ularning dasturiy ta'minotini tubdan yangilash, "kredit tarixi" axborot tizimini to'liq ishga tushirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar belgilanib, izchil amalga oshirilyapti.

Tijorat banklariga, shunchaki «korxona» emas, balki «maxsus korxona» deb qarash zarur. Chunki tijorat banklari ssuda kapitali harakatini amalga oshiradi va shu asosda bank o'z aksiyadorlariga foyda olishni ta'minlaydi. Tijorat banklari bank tizimining muhim bo'g'ini bo'lib, kredit resurslarining asosiy qismi shu banklarda yig'iladi hamda mazkur banklar yuridik va jismoniy shaxslarga o'z xizmatlarini ko'rsatadilar. Bank bu shunday korxonaki, unda xom-ashyo bo'lib depozit va qo'yilmalar hisoblansa, oxirgi tovar - bu berilgan ssuda va kreditlardir. Depozit va qo'yilmalar jalb qilingan qarz mablag'lari, berilgan ssuda va kreditlarlar esa - joylashtirilgan mablag'lar bo'lib hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Jismoniy shaxslar va boshqa tashkilotlardan pul mablag'larini jalb qilish uchun, qarz hajmiga qarab ma'lum summani foizlar shaklida to'lash lozim bo'ladi. Aks holda mablag' qo'yuvchilar yoki boshqa bankni tanlaydilar, yoki pul saqlashni boshqa shakllariga o'tadilar. Masalan, oltin yoki valyuta sotib olish, boshqa moliyaviy vositachilar xizmatlaridan foydalanish va boshqalar. Pul saqlash shaklini tanlashda mablag' qo'yuvchini ikkita muhim omil - moliyaviy vositachilarning ishonchliligi va daromad olish darajasi (qarzga to'lanadigan foizlar) ko'proq qiziqtiradi. Boshqa tomonidan, bank ssuda berganda uning summasiga qarab foiz shaklida to'lov undiradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining bozor munosabatlari subyektlari bilan aloqasi yanada kengayadi va chuqurlashadi. Bank bu holda barcha mablag'lari harakatini boshqarib boradi.

Bu ikkita foiz stavkalari o'rtasida farq - bank daromadining asosiy manbasi bo'lib, iqtisodiy adabiyotlarda u «marja» nomi bilan yuritiladi. Shunday qilib, marja - bu jalb qilinuvchi va joylashtiriladigan qarz va ssuda foiz stavkalari o'rtasidagi farqdir.

Banklar mablag'larni jalb qilish va joylashtirish yo'li bilan barcha pul mablag'lari harakatini boshqarib boradi. Bankning asosiy faoliyati vositachilik bilan bog'liq bo'lib, u pul mablag'larni qarz beruvchidan qarz oluvchilarga o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarni bajarishdan iborat. O'zbekiston Respublikasida xorijiy banklar va har qanday mulkchilik shakliga asoslangan banklar faoliyat ko'rsatishi

mumkin. O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari va ularning mulkchilik shakli turli mulkchilikka asoslangandir.

Odatda, O'zbekistonda banklar aksionerlik jamiyat ko'rinishida tashkil etiladi. Bankning ustav kapitalini shakllantirish uchun davlat organlarining mablag'lari, jamoa, birlashmalar va fondlarining mablag'lari, garov va kreditga olingan mablag'lardan foydalanish mumkin emas. Tijorat banklarining tashkiliy tuzilishi aksioner jamiyat tuzilishiga o'xshashdir. Tijorat bankining oliy organi aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi hisoblanadi. Bu yig'ilishlarda aksiyadorlarning vakillari va aksiyador korxonalarining rahbarlari ishtirok etadilar. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi ko'rib chiqishga qo'yilgan masalalarbo'yicha qaror qabul qilish uchun aksiyadorlarning kamida 3/4 qismi ishtirok qilishi lozim. Bankning boshqaruvini direktorlar kengashi amalga oshiradi. Unga qo'shimcha tarzda bank boshqaruvini kuzatish va nazorat qilish mas'uliyati ham yuklatilgan. Direktorlar kengashi a'zolarining tarkibi va saylanish muddati tijorat bankning nizomi bilan belgilanadi. Bank Kengashi bank faoliyatining asosiy yo'nalishini, kredit siyosati va bankning boshqa rejalarini ko'rib chiqish, daromad, xarajatlar, foya rejalarini tasdiqlash, shu'balarni ochish yoki yopish masalalarini ko'rib chiqish kabi masalalar bilan shug'ullanadi. Bank Boshqaruvi bank faoliyatiga bevosita rahbarlik qiladi.

Bank boshqaruvi aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi va direktorlar kengashi oldida javobgardir. Aksionerlarning umumiyligi yig'ilishi, bank kengashi va boshqaruv bankning boshqaruv organlari hisoblanadi. Bankka operativ rahbarlik qiluvchi va uning faoliyati uchun javob beruvchi bank boshqaruvi bankning ijroiya organi hisoblanadi. Boshqaruv bank kengashi va aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi oldida hisobdordirlar. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan barcha mamlakatlarda tijorat banklar iqtisodiyotining to'lov mexanizmida yetakchi o'rinni tutadi. Mamlakatimiz iqtisodiyotida to'lovlarini amalga oshirishni isloq qilish va rivojlantirish orqali to'lov tizimida tijorat banklarning o'rni kengaymoqda. Undan tashqari tijorat banklari moliya-valyuta bozorida faoliyat ko'rsatishi, ya'ni qimmatli qog'ozlar chiqarish va ularni joylashtirish, sotib olish bilan shug'ullanishi, mijozlarga har xil axborotlar, konsalting hizmatlari ko'rsatish bilan shug'ullanishi mumkin. Tijorat banklari yuqorida keltirilgan funksiyalar asosida quyidagi operatsiyalarni bajaradi:

- passiv operatsiyalar;
- aktiv operatsiyalar;
- bank xizmatlari va vositachilik operatsiyalari;
- bankning o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiradigan operatsiyalari va boshqa turdag'i operatsiyalarni bajaradilar.

Bugungi kunda mamlakatimiz aholisining moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularning hayotlari farovonligini ta'minlashda mikromoliyaviy xizmatlarning o'rni muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'z navbatida, aholi o'rtasida mikromoliyaviy

xizmatlarga bo'lgan talabning kuchayishi mahalliy mikrokredit tashkilotlari va lombardlar faoliyatini xalqaro talablar darajasiga olib chiqish va sifatli xizmat turlarini taklif etishni talab etadi. Jahan tajribasidan ma'lumki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari faoliyatining dastlabki davrlarida ularning kreditlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda tijorat banklariga muqobil ravishda nobank kredit tashkilotlarining ham ahamiyati kattadir. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan respublikada faoliyat ko'rsatayotgan nobank kredit tashkilotlari, xususan, mikrokredit tashkilotlari hamda lombardlar faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, shuningdek, ular faoliyatining me'yoriyhuquqiy bazasi yanada takomillashtirilishi nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini va faoliyati ko'lamenti kengaytirishga mustahkam zamin yaratmoqda.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari faoliyati samaradorligini to'xtovsiz oshirib borish jarayonini boshqarish amaliyotini takomillashtirish borasida bir qator dolzarb muammolarning mavjudligi va ularni hal qilishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishning zarurligi hamda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining dunyo mamlakatlari tijorat banklarining daromad bazasiga kuchli salbiy ta'siri yuzaga kelgan.

Bank resurslarini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar banklarning **passiv operatsiyalari** deyiladi. Passiv operatsiyalar yordamida tijorat banklarning passiv va aktiv - passiv schetidagi pul mablag'larining salmog'i oshib boradi. Banklarning passiv operatsiyalari ularning faoliyatini tashkil qilishda katta rol o'ynaydi. Passiv operatsiyalar yordamida tijorat banklari kreditlash uchun zarur bo'lgan-kredit resurslarini tashkil qiladi. «Bank tizimidagi islohotlar iqtisodiyotimizning barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashda eng muhim omil bo'ldi. Buning natijasida tijorat banklarining kapitali oshib bormoqda. Mobilizatsiyalashgan pul mablag'larini banklar mijozlarni kreditlash uchun va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash uchun foydalilanadi.

Daromad olish maqsadida bank resurslarini joylashtirish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar banklarning **aktiv operatsiyalari** deyiladi. Bankning aktiv operatsiyalarida asosiy o'rinni ularning kredit yoki ssuda operatsiyalari egallaydi.

So'nggi uch yilda banklar kapitali 1,8 baravarga, yillik kredit ajratish hajmi 2 baravarga ko'paydi. 4 ta bank ilk bor «yevrobond» chiqarib, xalqaro kapital bozorlaridan 1 mlrd dollar resurs olib keldi. «Ipoteka-bank»ka strategik xorijiy investor jalb qilindi. 13 ta yangi xususiy bank tashkil etildi, Vengriya, Qozog'iston va Gruziyaning nufuzli banklari mamlakatda faoliyat boshladi. Onlayn bank xizmatlari hajmi 2,7 barobarga oshdi.

«Agar bankni kapitallashtirish nuqtai-nazaridan 4,5 mlrd.dollardan ko'proq pul bermaganimizda, bu natijaga erisholmasdik. Albatta, bank sohasida o'zgarish bo'lmadi

desak, noto'g'ri bo'ladi, hozirgi iqtisodiyotimizni mana shunday barqaror bo'lishida o'zlarining uslublari o'zgarganini ko'rsatishdi. Birinchi marta Yevropa banki kirib keldi. «Ipoteka-bank»ni vengriyalik strategik hamkorga berdik. Qozog'istondan, Gruziyadan uchta bank keldi. Onlayn banklar ishlay boshladи. 13 ta tijorat banklarimiz ishlab turibdi», □ degan edi prezident.

Prezident Shavkat Mirziyoyev: Yaqinda Biznesni rivojlantirish banki hamda Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi tashkil qilindi. 2024 yil 1 yanvardan bazaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi mikromoliya banklari ishga tushadi. Shularga asosan, kelgusi yilda moliyaviy xizmatlar hajmi 30 foiz oshishi kutilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev, bank aktivlarida xususiy sektor ulushini 15 foizdan 60 foizga oshirishga qaratilgan 2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish strategiyasini amalga oshirish hamda mamlakat tijorat banklarining transformatsiya jarayonini jadallashtirish bo'yicha o'tkazilgan yig'ilishida ham ushbu maqsadga erishish uchun qator muhim masalalarini hal qilish lozimligi ta'kidlangan edi. Birinchi navbatda banklar transformatsiyasi jarayonini faollashtirish zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, h ozirda 6 ta tijorat banki - «Ipotekabank», «Sanoatqurilishbank», «Turonbank», «Asakabank», «Aloqabank» va «Agrobank» moliyaviy diagnostika, istiqbolli strategiyalarni ishlab chiqish va xususiylashtirish masalalari bo'yicha xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni boshlagan. Biroq, boshqa banklarni transformatsiya qilish ishlari yetarli darajada faol olib borilmayapti, dedi davlatimiz rahbari.

Tijorat banki - korxonalar, tashkilotlar, fuqarolarga universal bank xizmatlari (hisob-kitob, to'lov operatsiyalari, qo'yilmalarni jalb etish, omonatlarni saqlash, ssudalar berish, shuningdek, qimmatli qog'ozlar bozoridagi operatsiyalar) ko'rsatadigan yirik kredit muassasasi. Tijorat banki bank harakatlarini amalga oshirish uchun pul mablaglarini, asosan, qo'yilmalar (omonatlar), banklararo kreditlar, o'z aksiya va obligatsiyalarini chiqarish hisobiga shakllantiradi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining «Markaziy bank to'g'risida»gi qonuni. 15.11.2019, №O'RQ-582. 3.O'zbekiston Respublikasining “Valyutani tartibga solish to'g'risida”gi (yangi tahriri) qonuni. 22.10.2019, №O'RQ-573. 4.O'zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi qonuni. 2019 yil 07 noyabr, №O'RQ-580.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2019 yil 14 yanvardagi PF-5630-sonli farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5296 sonli farmoni. 2018 yil 9 yanvar.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947 sonli farmoni. 2017 yil 7 fevral
5. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo’ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi. “Xalq so’zi”. 2015 yil 17 yanvar.
6. Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi. T.: Moliya. 2017 yil. 148-bet.
7. Azizov U.O., Qoraliyev T.M. va b. Bank ishi. Darslik. T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2016 yil.
8. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/11/21/state-banks/>.
9. <https://xabaruz.com/uz/iqtisodiyot/prezident-bank-rahbarlari-ishtirokida>.